

UMUMINSONIY MUAMMOLARNING TURLARI VA ULARNING O‘ZARO BOG‘LIQLIGI

Eshboyev Bexzod Tojiyevich - *Qarshi davlat universiteti dotsenti.*

Nuriddinova Nigora Nishon qizi - *Qarshi davlat universiteti talabasi.*

O‘zbekiston. Qarshi shahri.

Annotatsiya: Hozirgi globallashuv sharoitida jamiyat va tabiat o‘rtasidagi o‘zaro keskin munosabatlar butun insoniyat hayoti uchun xafv tug‘diradigan muammolar turlari yuzaga kelmoqqa. Mazkur maqolada jamiyat kelajagiga tahdid solayotgan ana shunday muammolar tahlili haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: *global muammolar, qurolsizlanish, demografik muammo, energetik resurslar tanqisligi.*

TYPES OF HUMAN PROBLEMS AND THEIR INTERCONNECTION

Eshboyev Bekhzod Tojiyevich - Associate Professor of Karshi State University.

Nuriddinova Nigora Nishon qizi - Student of Karshi State University. Uzbekistan. The city of Karshi.

Abstrakt: In the current context of globalization, the tense relationship between society and nature is creating a variety of problems that pose a threat to the life of all humanity. This article will analyze such problems that threaten the future of society.

Key words: *global problems, disarmament, demographic problem, shortage of energy resources.*

Insoniyatning global– dunyoviy (sayyoraviy) muammolari o‘z ko‘lami va ta’sir doirasi jihatidan butun insoniyatni qamrab olgan muammolarning geografik jihatlari ham mavjuddirki, boshqa fanlar qatori ularni geografiya fani ham o‘rganadi. Chunki dunyoviy muammolarni har biri turli regionlarda turlicha namoyon bo‘ladi. Global muammolar faqat butun dunyo miqyosida masalagina bo‘lib qolmay avvalo ular muayyan xudud bilan bog‘liq regional muammolardir. Regionallikdan umumsayyoraviylik xarakteriga ega bo‘lgan geografik va ekologik muammolar bir biri bilan paydo bo‘lishi yechimi va boshqa jihatlari bilan bir necha turlarga bo‘linadi.

Tinchlik va qurolsizlantirish, yangi jahon urushining oddini olish muammolari barcha xalqlar uchun vaqt va makonda muhim bo‘lib kelgan. Lekin hozirgi davrda esa uni yechishga haqiqiy asos solindi, chunki, “Sovuq urush” tugatildi. Tinchlik va qurolsizlantirish, yangi jahon urushining oldini olish insoniyatning qirilib ketmay, o‘zini– o‘zi saqlab qolish muammosi haqiqatdan ham hozirgi kunimizning birinchi darajali muammosi. Chunki yalpi qirg‘in qurollari–

yadro va raketa texnikasi qurollari vujudga kelishi bilan butun sayyoraviy muammo bo‘lib qoldi. Yadro quroli ta’siri, raketa harakati doirasi yer planetasining faqat ayrim xududlari uchun ham, butun planeta hayoti uchun xavf tug’dirmoqda.

“Yer faqat bitta, ya’ni tanho!” ekologik muammosi. Odamlarning xo‘jalik faoliyati geografik muhitiga tabiatning o‘zida ro‘y beruvchi geogarfik jarayonlardan ham ko‘proq ta’sir ko‘rsatmoqda. Buni XX asr boshlaridayoq V.I.Vernadiskiy o‘zining “Noosfera haqidagi ta’limoti” da ko‘rsatib o‘tgan edi. Bu muammoning kelib chiqishining sababi geografik qobiqni tashkil etgan moddiy tarkibni ham tabiiy aylanma harakatning buzilishidir. Modda va energiya aylanma harakatida halqalardagi miqdoriy o‘zgarishlar sifat o‘zgarishlarga olib keladi. Bu esa yer geologik tarixiy davrlari davomida shakllangan. O‘z – o‘zini boshqarishga – muvozanatga ta’sir etish omilida namoyon bo‘ladi.

Demografiya muammosi– “Asr muammolari”ning eng asosiylaridan sanaladi. Uning muhimligi shunda namoyon bo‘lmoqdaki, dunyoning ko‘pgina mamlakatlarida ko‘payish muvozanati buzilmoqda, aholining tez qarib qolishi va sonining kamayib ketishiga olib keldi. Aholishunoslar demografik muammoning bu jihatini gepopulyatsiya deb ataydilar. (Populyatsiya – biologik atama bo‘lib, organiz muayyan xududda paydo bo‘lishi, kupayishi, nasl qoldirishi va tarqalishini bildiradi). Bu yerda esa aholi o‘zi paydo bo‘lgan makonda kamayib ketish ma’nosini bildiradi. Demografik muammoning bu jihati asosan rivojlangan Yevropa davlatlari uchun xosdir. Aholi asosiy ishchi kuchi hisoblanadi. Ishchi kuchi Yevropa mamlakatlarida boshqa regionlardan, xususan Osiyo va Afrikadan arzon ishchi kuchining oqib kelishi bilan bog‘liq qator xududiy– geografik va iqtisodi–ijtimoiy muammolarni paydo qilmoqda. Demografik muammolarning ikkinchi jihati shundaki Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarida aholining hamon tez o‘ssishi keng jamoatchilikni tashvishlantirmoqda. Chunki aholi tarkibida yoshlar tarkibining ortiqchaligi , aholi tabiiy o‘ssishi sur’atining yuqori bo‘lishini yaqin kelajak ta’minlaydi. Buning natijasida ish bilan ta’min etish, oziq–

ovqat, sotsial muammolar– uy–joy bilan ta'minlash, moddiy va ma'naviy sharoitlar yaratish mamlakat yaratish va boshqa masalalarni bir mamlakat doirasida ham, regional ko'lamda tez hal etishni talab qiladi.

Demografik muammosining barcha jihatlari ko'proq, geografik muammo tarzida ko'zga tashlanadi. Ta'kidlash lozimki demografiya muammosi Mustaqil Hamdo'stlik Davlatlarida o'z suvirentetini qo'lga kiritilishi bilan juda o'tkirlashib ketdi. O'zbekistonda aholi bilan bog'liq bo'lgan muammolar sovuqqonlik bilan izchil hal etilmoqda. Shu narsani ta'kidlash lozimki, qadim–qadimda ko'p bolali oilalar an'ana bo'lgan Osiyo va Tinch okean mintaqasida demografik muammo hamon o'tkirligicha qolmoqda. Markaziy Osiy davlatlarida demografik muammolar yechimi qishloq aholisini ish bilan ta'minlash muammosi bilan bog'liqdirki, bozor iqtisodiyoti sharoitini olib borishdek, O'zbekiston rahbariyatining siyosati boshqa qo'shni davlatlar uchun namunadir. Ammo demografik sig'im, urbanizatsiya tushunchalarida o'z ifodasini topgan. Aholi bilan bog'liq masalalar regionlarning dolzarb muammosi bulib ham uzoq davrlargacha davom etadi. Energetika va xom–ashyo muammolari: sabablari va hal etish yo'llari . Insoniyat jamiyat tarixi yoqilg'i va tabiatdan moddiy ne'matlar olishdek ayriboshlash tarixidan iborat. Insoniyatning yoqilg'i va xom–ashyo bilan ta'minlash bir muncha keskinlashgan davlatlar ilgari ham bo'lgan. Dunyoviy muammoligining asosiy sababi– yoqilg'i sifatida ishlatiladigan neft–gaz ko'mir va boshqa qazilma boyliklari – kaustobiolitlar tugaydigan, to'ldirilmaydigan resurslarni tashkil etadi . buning ustiga ularning zaxiralari cheklangan, ularni asosan qazib olish mumkin bo'lgan sharoiti murakkablashib boraveradi, qazib olish bilan iste'mol jarayonlari o'rtasidagi xududiy uzilish ortib bormoqda. Mineral resurslardan foydalanish darajasi fan–texnika tarqqiyot darajasi ya'ni energiya bilan qurollanish darajasi bilan bog'liq. Aniqlangan mineral resurs zaxirasi katta bo'lgan ayrim regeonlarda davlatlar ularni ishga tushirish uchun katta ilmiy–texnika potnetsialiga ega emas. Bu muammoning xududiy potensiyada namoyon bo'lishi, aslida emas ilmiy texnika imkoniyatlari – yangi manbalardan shu

jumladan atom energiyasidan foydalanish imkoniyatini yaratdiki, uning chiqindilari, ba'zan ishlash jarayonida ayrim nosozlik bo'lib turishi atom energiyasidan foydalanish muammosi, ularning eklogik muammolari haqida fikr yuritilganda, dastavval noan'anaviy manbalardan foydalanish ko'zda tutildi. Albatta, noan'anaviy manbalardan foydalanganda yuksak texnologik jarayonlar yaratilishi lozim, quyosh energiyasi, geotermik energiya, suv ko'tarilish energiyasidan foydalanish bir qator qimmat uskunalarni talab etish bilan birga, ular iste'molchilardan odatda uzoqda joylashganligini ham unitmasligimiz kerak, bundan hosil qilgan energiyani yetkazib berishdek transport muammosi ham kelib chiqadi. Xom ashyoni, mineral resurslar bilan ta'minlanganlik darajasi xom-ascho turi zamonning biologik tuzilishi o'rganilganlik darajasi kabi masalalar bilan bog'lanib ketgan. Chunonchi O'zbekiston Respublikasi zamini yoqilg'i energetika, rangdor metal xom ashyolariga boy, ularni ishlash bilan bir qatorda turadi. Ammo, mashinasozlik va boshqa muhim sanoat tarmoqlari uchun zarur bo'lgan qora metall resursi –temir rudasi Respublikamiz boy emas bu bir jihatdan tayyor maxsulotni olib kelish zamini temir rudasi chiqitlari bilan ifloslanmaslik kabi ijobiy holatni vujudga keltirsa, ikkinchi tomondan qora metallurgiya maxsulotlarini qat'iy tejashni, uning zrnin bosadigan maxsulotlarni yaratishni taplab etadi.

Oziq– ovqat muammosi – yer yuzasining tobora o'sib borayotgan aholini oziq– ovqat bilan qanday ta'minlash kerak? Insonning nomal hayoti va faoliyati uchun zaruriy oziq ovqat miqdorining jinsi, yoshi, xududning iqlimiy sharoiti, vazni, bo'yi qiladigan mehnatining xarakteri sharoiti va turmushi bilan bog'liq. Tatqiqotchilarning ma'lum qilishicha, iste'mol qiladigan taomning miditsena normasi 2300–2600 kkal va 70–700 gramm oqsildan kam bo'lmasligi kerak. Biroq BMT ma'lumotlariga ko'ra insoniyatning 2/3 qismini, ya'ni 65 – 66 %ini muttasil ravishda oziq ovqat maxsulotlarini yetishmasligi seziladigan mamlakatlarda yashaydi. Mana shuning uchun ham oziq ovqat maxsulotlorining global muammo deb qarash lozim. Bu muammoni yechish uchun insoniyat dehqonchilik, chorvachilik va baliqchilik resurslaridan to'liqroq foydalanishi kerak. Oziq ovqat

muammosining dunyoviy geografik muammosi shundaki, dehqonchilik va chorvachilik qilish uchun qulay bo'lgan yerlar planetamizda noteks tarqalgan, bir xududda yer bo'lgan holda bu manbalari – (O'rta Osiyo uchun) ko'p mintaqalarda suv mo'l issiqlik yetishmaydi, yerlar unimsiz. Demak, yerlar ilmiy fan yutug'ini joriy etib foydalanilsa, muammoni yumshatish mumkin. Dehqonchilik qulay bo'lgan yerga munosabati uni ishlatish masalasi bu muammoning muhim jixati, chunonchi, geografiya darsligi ma'lumotiga qishloq xo'jaligida ishlovchi bir odam Hindistonda 5 kishini, GFR da 50 kishini, AQShda 80 kishini, Belgiyada 100 kishini boqadi. Xolbuki, Hindiston, Pokiston va Kongo kabi oziq ovqat taqchil bo'lgan davlatlarning tabiiy iqlim sharoitlari dehqonchilik uchun Belgiyadagidan ancha qulay. Shu o'rinda oziq ovqat bilan ta'minlashning geografik jihatlari bilan ilmiy – texnika, mulkiy – huquqiy tomonlari bir-biri bilan bog'lanib ketishini eslatish mumkin. Dunyo Okeanidan foydalanish muammosi. Albatta, geograf uchun Dunyo Okeani hayot beshigi, geografik kashfiyotlar vositasi, iqlim– tabiiy sharoitni shakllantiruvchi bosh olim sifatida qiziqarlidir. Ilmiy texnika taraqqiyoti jadallashgani sari Dunyo Okeanini har tomonlama tatqiq etish va o'zlashtirish butunlay boshqasa kasb etdi. Dengizdan foydalanishni kuchayishi energetika va xom ashyo manbalarning kamayib borishi bilan muammolar bilan bog'liq. Oziq ovqat bilan ta'minlash transport sifatida foydalanish, Dunyo Okeanining ifloslanib borishi gedrosferaning Dunyo Okeani qismi sivilizatsiya arikasi bo'lgan geografik qobiqning barcha muammolari tuguni yechiladigan halqa sifatida e'tirof etish talab qiladi. Kosmosni tinch maqsadlarda o'zlashtirish ham umumgeografik dunyoviy muammolarning yetakchisidir. Kosmos dunyo miqyosidagi muhit, insoniyatning mulki hisoblanadi. Kosmos orqali yer yuziga quyosh energiyasi issiqlik va yorug'lik tarzida kelar ekan, kosmosning ayniqsa uning yer atrofi qismi tabiiy holatda musaffoligi yer iqlimi uchun nihoyatda muhimdir. Raketa va yadro qurollar yaratilgan hozirgi davrda kosmosni tinch maqsadlarda foydalanish bir qancha murakkabliklar kasb etadi. Ozon tuynugi hosil bo'lishi, yerning geografik taraqqiyot tarixi davomida shakllangan yaqin kosmosga insoniyat faoliyati xavf

vujudga keltirayotganini ko'rsatadi. Demak, kosmosni o'zlashtirish va tinch maqsadlarda foydalanish uchun mamlakatlar va xalqlarning texnikaviy, iqtisodiy aqliy imkoniyatlarini jipslashtirishni talab etadi .

Xulosa. Insoniyatning umumgeografik muammolari planetamiz tabiati va unda yashaydigan insoniyat jamiyatining turli jihatlariga tegishli bo'lib, ularning yetishish kishilik jamiyatini taraqqiyotining intellektual maxsuloti bo'lgan fan – texnika taraqqiyotini yanada to'laroq ishga solishni talab qiladi. Zero inson o'zi paydo bo'lgan planeta tabiatini asrashga burchlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sultonov P.S. Ekologiya va atrof–muhitni muhofaza qilish asoslari. Toshkent 2007. 58-77 b.
2. Baratov A.S., Qoriyev M.R. Atrof-muhit muhofazasi. O'quv uslubiy majmua. Nam DU, 2023. 36-38 b.
3. Otaqulov U.X. Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi. Qarshi iqtisodiyot instituti kichik bosmaxonasi. 2022.
4. Эшбоев Б.Т. Топонимы Кашкадарьинской области. - Монография. Узбекистан, Карши -2021.
5. Tojievich E. B., Geldiyarovich N. M. Explanation Of Oronyms And Orographic Terms Of Kashkadarya Region //Journal of Contemporary Issues in Business and Government. – T. 2021.
6. Eshboev B., Abduraimov B. Natural geographical problems of using the mountain and near-mountain areas of Kashkadarya region //Экономика и социум. – 2024. – №. 5-1 (120). – С. 275-278.
7. Eshboev B.T., Xudoyberdiev J.J. Relations of place names of Kashkadarya region with microclimate //Экономика и социум. – 2023. – №. 10 (113)-2. – С. 108-111.